

HARBIY XIZMATCHILARINI KASBIY FAOLIYATIGA MOSLASHUVNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Tursunov Kamariddin G'ulomovich

Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri.

Annotatsiya. *Tarix shaxslar harakatlaridan iborat bo'lganligi bois ijtimoiy fanlar, jumladan, pedagogika nazariyasi ana shu xatti-harakatlarni tushuntirib berishga daxldordir. Kasbiy faoliyatni olib borayotgan har bir harbiy xizmatchi mazkur davlatning qonunlariga rioya etish, shuningdek, o'zlarida kasbiy ongni, madaniyatni rivojlanganligini, tarbiyalanganligini mezoni sifatida huquq, burch va majburiyatlarini bilishi shartdir.*

Kalit so'zlar: *Har bir muammoning nazariy-tarixiy jihatlarini o'rganish ushbu muammoning metodologiyasini tanlashga, o'rganishga bevosita yordam beradi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish ularning shakllanishining mazmunini boyitishga xizmat qiluvchi omillarga bog'liq, bunday omillarga quyidagilar taalluqli:*

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. Prezidentimiz asarlaridagi nutqlari;
3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari;
4. Buyruqlar va ko'rsatmalari;
5. Har harbiy xizmatchining jamoat tartibini saqlash faoliyatidagi ishtiroki;
6. Ma'rifat darslaridagi ishtiroki;
7. Axloq-odob sudlarida ishtirok etishi;
8. Yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazish orqali;
9. Ijtimoiy siyosiy o'qish orqali;
10. Jismoniy va jangovar saf tayyorgarligi orqali;
11. Xizmat o'tayotgan joylarda o'tkaziladigan ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda qatnashishda.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi hali ularni harbiy Nizomga to'liq rioya etadi degani emas, buning uchun har bir harbiy xizmatchida kasbiy mahorat kasbiy ong, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish lozim. Kasbiy mahorat, kasbiy tajriba bevosita kasbiy moslashuvning mahsulidir. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayonining muhim imkoniyatlari harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligining protsessual tomonini yanada takomillashtirishning muhim sharti bo'lgan bir qator funksiyalarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi,

ya'ni: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va kasbiy faoliyatga axloqiy-psixologik tayyorgarlik.

Ta'lim funksiyasini amalga oshirish jarayonida harbiy xizmatchilar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, maxsus fanlarni o'qitish bo'yicha kasbiy zarur bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantiradilar. Tarbiyaviy funksiya harbiy xizmatchilarga kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning kasbiy dunyoqarashini, harbiy-kasbiy, intellektual, ma'naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga imkon beradi. U kasbiy tayyorgarlikning umumiy va o'ziga xos vazifalarini sintez qiladi. Rivojlantiruvchi funksiya harbiy xizmatchilar o'rtasida ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iborat bo'lib, uning asosi harbiy xizmatchining nuqtai nazari bilan va aniq sharoitlarni hisobga olgan holda fikrlash qobiliyatidir. Harbiy xizmatchilarning intellektual rivojlanishi zarur bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, rivojlantiruvchi funksiyani amalga oshirish sog'liqni saqlash va mustahkamlash, psixofizik qobiliyatlarni rivojlantirish va o'qish jarayonida harbiy xizmatchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiya, sport va jismoniy rivojlanish orqali ijtimoiy moslashishga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish ikki yo'l bilan ifodalanishi mumkin: jarayon sxemasiga va faoliyat tuzilishiga ko'ra. Shunga asoslanib, harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

1) tashkiliy-maqсадli bosqich: harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish maqsadlarini belgilash; harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini rejalashtirish; harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini samarali shakllantirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

2) amalga oshirish bosqichi: tanlangan maqsadga muvofiq tarbiyaviy ishlarni tashkil etish; to'g'ridan-to'g'ri rasmiy maqsadlar uchun vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan harbiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish; kasbiy madaniyatni o'rganishning eng maqbul tashkiliy shakllarini yaratish;

3) natijali-baholash bosqichi: harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda maqsadlarni belgilashni tahlil qilish va aniqlashtirish; kasbiy madaniyatning barcha tarkibiy elementlarining muvofiqligini aniqlash va tuzatishlar kiritish; kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayonining samaradorligini tahlil qilish, baholash va maqbul natijalarga erishish uchun uni tuzatish; kasbiy madaniyatni baholash; kasbiy madaniyatni rivojlantirish va uni tuzatish. Ko'rib chiqilayotgan pedagogik jarayonning natijasi harbiy xizmatchilarning kasbiy

madaniyatining yuqori darajasi shakllangan va rivojlangan ko'nikma va malakalar, olingan bilimlar, shaxsiy fazilatlar, shuningdek, harbiy sohada kasbiy ishlash qobiliyatining ajralmas birligi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isayev, I. F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya kak usloviye modernizatsii pedagogicheskogo obrazovaniya [Tekst] / I. F. Isayev // Pedagogicheskoye obrazovaniye i nauka. — 2004. - № 5. - S. 16-22. - ISSN 2072-2524.

2. Klarin, M. V. Texnologiya polnogo usvoyeniya [Tekst] / M. V. Klarin // Shkolnyye texnologii : nauch.-prakt. jurn. shkol, texnologa (zavucha). - 2005.- № 5.-S. 60-72.

3. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda sharq mutafakkirlarining o'rni. //Science and innovation, international scientific journal, Volume 1, ISSUE 6, 2022. ISSN 2181-3337.

4. Mavlonov F.F. Technologies for the development of professional culture in the formation of patriotic competences of military servants // International Journal of Pedagogics, Volume 2, Issue 12, 2022. P. 57-66.